

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

*(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)*

**“Халқ билан мулоқот ва инсон
манфаатлари” йилига бағишланади**



Бухоро - 2017

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ХАЛҚ БИЛАН МУЛОҚОТ ВА ИНСОН
МАНФААТЛАРИ” ЙИЛИГА БАҒИШЛАНАДИ**

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

**(Магистратура талабалари ва ёш олимларнинг
илмий мақолалар тўплами)**

“Дурдона” нашриёти

Бухоро, 2017

Birinchi test	5	1	2	3	4	6	7	10	8	9
Ikkinchi test	2	1	4	3	5	6	10	9	7	8
Ranjirovkasi										
Ranjirovkalashlar - ning umumiy yig'indisi	7	2	6	6	9	12	17	19	15	17
Guruh kesimida egallangan o'rin	4	1	2-3	2-3	5	6	8-9	10	7	8-9

Shunday bo'lsada, ikki yoki undan ortiq test ko'rsatkichlarni maxsus bay

Adabiyotlar:

1. Ролевшиков М.М. Спортивная метрология. Лекция 3: Измерения в физической культуре и спорте. / Марийский государственный университет. – Ёшкар - Ола: МарГУ, 2008. – 34с.

2. www.ziyouz.com kutubxonasi

3. <http://lib.sportedu.ru>

4. <http://koi.tspu.ru>

ASQAR MAHKAM SHE'RLARIDA TASAVVUFIIY TUYG'ULAR TALQINI

Z.N. Jamolova, BuxDU magistranti

Asqar Mahkam o'zbek adabiyotini Ahmad Yugnakiydan Abdulla Oripovga qadar, tojik adabiyotini Ro'dakiydan Loiqa qadar o'rganib chiqqan, Qur'on tafsiri va hadis ilmini puxta o'zlashtirgan ijodkor sifatida ulkan haqiqatni anglab yetgan ijodkor edi.

Asqar Mahkam o'z asarlarida Insonni bor murakkabligi bilan tasvirlaydi. Yuzaki tavsif etish uning ruhiyatiga yotdir. Asqar Mahkamning "Tazarru" to'plamidan o'rin olgan "Kuz" ...odam" she'rida kuz faslini go'yo inson umriga o'xshatadi. Kuz faslini oltin fasl sifatida tasvirlash ko'pchilik ijodkorlarga xos bo'lib, Asqar Mahkamning she'rida esa u bu faslni inson umrining yakuni sifatida beradi. Lekin shoir hayotdan umidini uzmagani holda "biz qaytamiz, bir kun qaytamiz" deya, hayotdan umidini uzmaydi. Ushbu she'rda shoir inson umrining g'animatligini, uning har bir daqiqasini qadriga yetib yashash kerakligini badiiy tashbehlar orqali tasvirlaydi. She'rdagi har bir misrani tahlil qilsak, yangidan – yangi ma'no kelib chiqadi. Quyidagi satrlar inson qalbini junbushga keltiradi: "qaytayapman

o'zini ko'mib", "ko'zlarimda qonim qonaydi", "tumanlarning og'ir oyog'i", "daryolarning kalla chanog'i", "yomg'ir kuzning moviy zavoli", "o'ylar uysiz daydi kuchuklar", "bog'lar aro so'ngan ko'zdir-kuz". Shoir daraxtlarning barglari xazon bo'lib to'kilishiga kuz faslini aybdor deb hisoblaydi, hatto bu azoblarga bardosh berolmagan shoir jon taslim etganida qora qayrag'och ham qora kiydi deydi. Daraxtlar shunchalar mo'rt bo'lganidan agar ularni quchoqlasang qovurg'alari qarsillab sinadi deydi.

She'rdagi tashbeh san'atini kuzatishimiz mumkin: yomg'irni kuzning zavoliga, inson xayolidagi o'ylarini uysiz daydi kuchuklarga, sad daraxtini sarhadsiz chayqalgan kuzakka, kuz faslini esa so'ngan ko'zga o'xshatish orqali shoir tashbehlarning badiiy tahlil talab turlarini yaratgan.

Xayr endi, mening xazonim,
tanho go'rga sig'dik ikkimiz,
yig'layotir, kuylayotir jim
joni kuzda chiqqan jismimiz.

Asqar Mahkam she'rlarini o'qigan vaqtda inson yuragida allaqanday tushuncha paydo bo'ladi. Uning she'rlari shunchaki she'r emas, balki shoirning hayot, olam, insoniyat, ruhiyat va boshqa mavzulardagi kuzatganlari asosidagi dil so'zlari kabi jaranglaydi. Shoir she'rlarining asl mohiyatini tushunish murakkab, bunda o'quvchi tasavvuf ilmidan xabardor bo'lishi kerak.

Shoirning "Oshiqona" nomli she'rida haqiqiy oshiqlik ya'ni ilohiy ishq kuylanadi. Har bir misrada qofiyadosh so'zlardan o'rinli foydalangan. She'rdagi har bir so'zning ma'nosini bilmasdan turib she'rning asl ma'nosini tushunish mushkul. Quyida ushbu she'rdagi tushunish murakkabroq bo'lgan so'zlar keltirilgan:

- "Hamoqat" - ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik, ta'na qilish, ayb taqash. Birovni haq - nohaq yomonlab aytilgan gap, mazammat, ta'na

- "Safolat" - juda yomon nochor ahvol, abgorlik. Yaramas hatti - harakat yoki xulq - atvor, razillik razolat.

- "Razolat" - pastkashlik, qabihlik, yaramas, jirkanch hatti - harakat, qabih, razil ish, tubanlik, razillik.

- "Raqobat" - kuzatish, nazorat, basma - baslikka bellashuv, kim o'zdi, talabgorlar raqiblar kurashi.

- "Kifoyat" - yetarlilik, zarur miqdorning borligi, qanoatlansa bo'ladigan darajada qanoatlanarli, yetarli.

-“Shafolat”- tarafini olish, birov uchun vositachilik. Martabasi va hurmati yuqori kishi tomonidan o'zidan past kishilarni, beva – bechoralarni qo'llab quvvatlash, ularga nisbatan homiylik, yaxshilik qilish.

Shoir she'r baytlarida bir –biriga bog'liq va bir – biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali tanosub san'atidan mohirona foydalangan bo'lib, bu orqali u oshiqning his-tuyg'ularini tasvirlashda ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi.

Malomat bor, haqoratlar bor,
alomat bor, asoratlar bor,
adovat bor, hamoqatlar bor,

men- ishqparast, illo ishqparast!

Shoir majoziy ishqni emas balki, ilohiy ishqni kuylaydi. U oshiqning qalbida malomat ham, haqorat ham, alomat - asorat ham, adovat, hamoqatlar bor bo'lib shularni hammasini birlashtirgan oshiq qalbi ishqparastlikdan hech qachon tonmasligi tasvirlangan. Haqiqiy oshiq muhabbatni ibodat kabi qabul qiladi deydi:

Kifoyat bor, inoyatlar bor,
ijozat bor, ibodatlar bor,
shifoat bor, shafolatlar bor,
men ishqparast, illo ishqparast!...

Asqar Mahkam ijodi ulkan ummon va betakror jozibadan iborat. Uni qanchalik tadqiq qilmaylik bu xazina chashmasi sira tugamaydi. Hatto bir baytning ustida soatlab bahs olib borish, fikr yuritish mumkin. Sababi, unda irfon dunyosi yashaydi. Shoir she'rlariga ilhom bergan narsa Qur'on oyatlari, hadis ilmi deb hisoblanadi. Va bu kitoblarga bo'lgan ulkan muhabbat uning ijodida o'z ta'sirini ko'rsatgan. She'rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba'zan achchiq so'zlar shoir ijodida haqqoniy tilga olingan. Ya'ni, u yasama so'z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo'shilib yonadi. Ishq deganida, o'zgalar ham oshiq bo'ladi, shoir nadomat chekkanida, o'quvchi ham qo'shilib, o'sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi. Shundan bilish mumkinki, Asqar Mahkam Haq yo'lida haqiqatni kuylab o'tgan yirik shoirlardan biri bo'lgan. Uning ijodidan bahra olgan qalb esa, hamisha osudalikda, shoir dunyosida u bilan birga yashaydi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: "Ўқитувчи", 1973. - 245 б.
2. Асқар Маҳкам. Ҳақ. "Адиб", Душанбе. 1998. - 210 б.
3. Асқар Маҳкам. Аналҳақ. "Абдулла Қодирий", Т.: 2003.- 136 б.
4. Алишер Нарзулло. Ҳар лаҳзада тазарру. www.зиё.сом.
5. Асқар Маҳкам Мен ярми – форс, ярми туркийман www.фикр.уз.

DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Z. Q. Jumayeva, BuxMTI

Davlat xaridlari yoki davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi davlat muassasalari tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonining ajralmas qismidir. Davlat xaridiga e'tibor uning muhimligidan kelib chiqadi.

Birinchidan, davlat xaridlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan davlat sektorining puxta ishlashi uchun uni zarur bo'lgan tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turadi. Ikkinchidan, jamlama byudjet xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridlari uning muvozanat saqlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuksak tovar xomashyo birjasi tomonidan tashkil etilgan elektron savdo orqali har bir shartnoma 300 AQSH dollaridan 100 ming AQSH dollarigacha teng bo'lgan ekvivalent miqdorida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Moliya vazirligining G'aznachiligi davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi etib tayinlangan. Yurtimizda tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida Respublika tovar xomashyo birjasi va uning hududiy bo'limlari orqali tashkillashtiriladigan alohida tovar (ish, xizmat) turlariga davlat xaridlarini elektron portal orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Elektron savdolar Respublika tovar-xomashyo birjasi, uning tumanlardagi brokerlik kontoralari va savdo maydonchalarida tizimli tarzda tashkil etilmoqda.

Turli mamlakatlardagi davlat xarid hajmi yalpi ichki

МУНДАРИЖА

	Сўз боши	3
Акрамова Г.М., Арслонов Қ.П.	15-16 ёшдаги мактаб ўқувчилари ўртасида енгил атлетика спорт турига қизиқишни ошириш тамойиллари	5
Akramov I.I., Rasulov Z.	Dunyoning lisoniy manzarisini tasvirlashda iboralarning o'rni	8
Abdullayev H.H., SHomurodov T.R.	Chorvachilik va parandachilikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida biogaz ishlab chiqarish istiqbollari	12
Arabov U.H.	Qaror va farmoyishlar bazasini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rni, f9 dasturi.	14
Axmedov A., G'afurov K.H.	Texnologik jarayonlarni akt asosida boshqarishda dasturlar ishlab chiqish texnologiyasi	18
Bafayeva Z.KH., Artikova KH.T.	Physical and chemical properties of historically irrigated pasturable alluvial soils of the Bukhara oasis	23
Бафаева З.Х., Артикова Х.Т.	Экологическое состояние орошаемых почв Бухарского оазиса	26
Восиева Ш., Гадоева М.И.	Инглиз тилида отларнинг аффиксация усули билан ясалиши	31
Вохидова З.Н., Асадова С.С., Файзиллоева Н.Б., Рахмонов И.М.	Замонавий тикув машиналарида динамик зўриқишнинг салбий оқибатлари ва уларни бартараф этиш йўллари	35
G'afurov M.O. Ergashev S.	Tezligi rostlanadigan elektr yuritmalaridagi dinamik jarayonlarning "matlab" dasturidagi tahlili	38
Djafarova N.A.	Turizmdagi statistik hisob usullari dunyo mamlakatlari misolida	42
Джураева З.И., Бакаева М.К.	Проблема положительного героя в рассказах редьярда киплинга о маугли	47
Djurayeva M.Z.	Jismoniy madaniyat ta'limining testlash va	52

Kadirov R.X.	baholash amallari to'g'risida	
Jamolova Z.N.	Asqar Mahkam she'rlarida tasavvufiy tuyg'ular talqini	57
Jumayeva Z.Q.	Davlat xaridlarini tashkil etishning nazariy asoslari	60
Жумаева З.Қ.	Миллий иқтисодиёт самарадорлигини аниқлашда ялпи ички маҳсулотнинг ўрни	63
Zaripov K.Y.	The effect of economy concept into	
Rasulov Z.I.	linguistic changes of morphologic units	66
Исломов Б.Б., Мирзоев Н.Н.	Бўстон 110/35/10 қвли подстанциясини модернизация қилиш даврида рақамли ва микропроцессорли реле ҳимоя қурилмаларини қўллаш орқали ҳимоя тизимини ишончлилигини ошириш	69
Исматов С.Р.	Бошланғич синф ўқувчиларида ижодий қобилиятларни тарбиялаш	72
Karimov R.S., Jalolov O.I.	Moodle tizimida statistik hisobotlarni boshqarish	78
Kurbanova M.X.	Turistik masumiylik muammosini bartaraf etishning jahon amaliyotidagi chora-tadbirlari	83
Mansurova M.A.	Ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasida yuzaga keladigan holatlar tasnifi	87
Mehmonqulova F., Mo'minov X.I.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning tahlilida dinamika ko'rsatkichlaridan foydalanish	90
Муродов Б.К.	Процесс производства нефтяного твердого парафина	94
Муҳаммеджанова С., Курбонов Ф.А.	Тикув машиналари механизмларининг конструкциялари ва ишчи органларига қўйиладиган қатъий талаблар	97
Мўминов Х.И.	Юқори маълумотлилар кўчиши: назария ва амалиёт	101
Naimova A.M.	Epistolyar janr genezisi	106
Нарзуллаева М.	Жондор тумани микротопонимиясига доир мулоҳазалар	109